IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

MEHNAT SHAROITLARINI GIGIYENIK BAHOLASH. NOQULAY MEHNAT SHAROITLARINI AYOLLAR SALOMATLIGIGA TA`SIRINI O`RGANISH

Kodirova M.M.,

Muxammadova G.Q.

"Kommunal va mexnat gigiyenasi" kafedrasi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti. O'zbekiston.

Annotatsiya

Ayollarning reproduktiv salomatligi buzilishining oldini olish jamiyatning zamonaviy sharoitida sog'liqni saqlashning ustuvor muammolaridan biridir. Umuman olganda, sog'lom aholi va ayniqsa, mehnat resurslarini ko'paytirish mehnat sharoitlarini yaxshilash masalalarini hal etishga, ularni amalga oshirishga bog'liq. Ishlovchi ayollarning sog'lig'ini, ayniqsa homiladorlik davrida himoya qilish sog'liqni saqlash tizimi oldidagi katta vazifalardan biri.

Абстракт

Профилактика нарушений репродуктивного здоровья женщин является одной из приоритетных проблем здравоохранения в современном обществе. В целом здоровье населения и, в частности, увеличение трудовых ресурсов зависят от решения вопросов улучшения условий труда и их реализации. Охрана здоровья работающих женщин, особенно во время беременности, является одной из важнейших задач системы здравоохранения.

Annotation

Prevention of women's reproductive health disorders is one of the priority health problems in modern society. In general, a healthy population and, in particular, the increase of labor resources depend on solving the issues of improving working conditions and their implementation. Protecting the health of working women, especially during pregnancy, is one of the major tasks of the healthcare system

Kalit so`zlari

Ayollarning faoliyat turlari, shovqin, tebranish, varikoz, yurak qon – tomir kasalliklari, ish kunini to`g`ri taqsimlash, mehnatning og`irligi va keskinligi, chang, ayollar salomatligi.

O`zbekiston Respublikasini Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev PF – 87- son 07.03.2022 yildagi " Oila va Xotin qizlarni tizimli qo`llab quvvatlash ga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora – tadbirlar" tog`risidagi farmoniga binoan Mamlakatimizda xotin – qizlarnining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish sog`liqni saqlash, kasbga o`qitish va bandligini ta`minlash, tadbirkorlikka keng jalb qilish va ularni qo`llab quvvatlash, ayollarni ish bilan ta`minlash eng katta maqsadlarimizdan biridir. Xozirgi kunda sog'liqni saqlash tizimi tomonidan chiqarilayotgan bir qancha qarorlar va chora tadbirlarda reproduktiv salomatlikni ta'minlash uchun ayollar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xozirgi kunda ayollarimiz turli sohalarda faoliyat olib bormoqdalar. Ularning ishlash jarayonida mehnat sharoitlarining noqulayliklari ayollarimizning salomatligiga jiddiy zarar keltirmoqda. Misol qilib aytganda: ayollar jamoasidan tashkil topgan kasblardan biri tikuvchilikdir. Tikuvchilik sanoatida ishlaydigan ayollar (tikuvchi va to'quvchi) bir qator ishlab chiqarish, kasbiy, atrof-muhit va maishiy omillarning birgalikda ta'siriga duchor bo'lishadi, bu esa ayollarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, mehnat muhiti omillari majmuasining ayollarning reproduktiv salomatligiga ta'sirini hisobga olish zamonaviy tikuvchilik ishlab chiqarishi dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ishning maqsadi: Ayollar salomatligini tiklash maqsadida ularga mehnat faoliyatida noqulay mehnat sharoitlaridan zamonaviy sharoitlarga olib chiqish, mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo`lib, ayollarning kasallanishini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ilmiy asoslash va ishlab chiqishdan iborat.

1.Turli sohada faoliyat olib borayotgan ayollarimiz uchun zamonaviy asbob uskunlar bilan jihozlangan , mehnat jarayonining gigiyenik nuqtai nazardan javob beradigan ish sharoitlarini yaratish, tikuvchilik sanoatining ayol ishchilari (tikuvchi-mashinistlar va kesuvchilar) va muhandis-texnik xodimlari o'rtasida zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini aniqlash.

2 Ishlab chiqarish sanoat korxonlarida ishlovchi ayollar salomatligiga ta`sir etuvchi omillar: shovqini, tebranish, elektromagnit nurlanish, yorug'lik, mikroiqlim parametrlariga gigiyenik baho berish.

3 Tikuvchilik sanoati va ishlab chiqarish sanoat korxonalarida ishlovchilar uchun ish kunining dinamikasida ish jarayonida ayollar tanasining funksional holatini o'rganish, ishning og'irligi va intensivligini baholash, zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini hisobga olgan holda mehnat sharoitlariga umumiy baho berish.

4 Ayollar o`rtasida noqulay mehnat sharoitlaridan kelib chiqadigan turli xildagi kasb kasalligi bilan kasallanishni chuqur tahlil qilish, kasbi, yoshi va ish tajribasiga qarab ginekologik kasallanish darajasi va tuzilishini o'rganish.

5 Noqulay mehnat sharoitlaridan zamonaviy asbob – uskunalar bilan ta`minlangan mehnat sharoitlarini tashkil qilish va ayol ishchilar o'rtasida kasallanishni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ilmiy asoslash.

Xozirgi kunda mamlakatimiz rivojlanib borgan sari ayollarimizga bo`lgan e`tibor yanada kuchayib bormoqda. Ayollarning ishlab chiqarish sharoitida band bo'lgan ayollarning mehnat faoliyatining xususiyatlarini va reproduktiv salomatlik holatini, mehnat jarayonining og'irligi va intensivligini baholash uchun keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazib kelinmoqda.

Turli sohalarda ish faoliyatini olib borayotgan ayollarimizning mehnat sharoitlarini o`rganish borasida: kuni bilan tik oyoqda turib ishlashning oqibatida ayollarimizda kelib chiqayotgan oyoqlarda qon aylanishning buzilishi (varikoz) yoki kun davomida tikuvchilarimiz tikuv moshinasida ishlash natijasida kam xarakatlilik (semizlik) buning oqibatida esa ayollarimizda yurak-qon tomir va qandli diabet kasalliklari kelib chiqmoqda. Kiyim-kechak ishlab chiqarishda mehnat sharoitlarini o'rganish bizga ish sharoitini yaxshilash va ishchilar o'rtasida kasallanishni

kamaytirishga qaratilgan sanitar-gigiyenik va davolash-profilaktik tadbirlari majmuasini ishlab chiqish imkonini berdi.

Ishlab chiqarish sanoat korxonalarida ishlovchi ayollarga ishchi zonaning mikroiqlim sharoiti ishchilarga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Tikuvchilik fabrikalarida mavjud bo`lgan asbob uskunalar va tikuv mashinalaridan chiqayotga shovqin ishchilarni eshitish sistemasiga ta`siri natijasida ayollarda karlik xolatlari kuzatilmoqda. Matolardan chiquvchi chang xona xavosidagi chang miqdorini oshirish oqibatida esa ishchilarda yuqori nafas yo`llari kasalliklari (bronxial astma, allergik kasalliklar, teri kasalliklari , rinit va x.k.) Dazmol, tikuv mashinalari matoridan chiquvchi issiqlik xisobiga xona xarorati keskin ko’tariladi va natijada namlik xam ortadi. Kun davomida bir nuqtada vibratsion xolatda ishlovchi ayollar organizmida markaziy nerv sistemasida qo`zg`alishlar kelib chiqish natijasida vibratsion kasalliklar paydo bo`lmoqda.

Ishlab chiqarish sanoat koronasidagi ishchilarning ish faoliyati to`g`ri tashkil qilinmasligi majburiy ish holati mavjudligi sabab ayollar organizmining funksional buzilishiga olib kelmoqda, ayol ishchilar o'rtasida kasb kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlarining oshishi, shu jumladan tos a'zolari kasalliklari, shuningdek, tananing ortiqcha kuchlanish belgilarining rivojlanishi bilan birga keladi, ish smenasining oxirida charchash belgilari yaqqol namayon bo’ladi.

Ushbu yuqorida keltirib o`tilgan xolatlarni kamaytirish va oldini olish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti takidlab o`tganidek “Ayollarimiz uchun qulay mehnat sharoitlarini yarataish, ish kuni davomida ish vaqtini to`g`ri taqsimlash va dam olish vaqtlarini tashkil qilish, ishlab chiqarish sanoat korxonasida ishlaydigan ayollar o'rtasida kasallanishning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar kompleks bo'lishi va mehnat jarayonini tashkil etishni takomillashtirish, asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini avtomatlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni, shuningdek, noqulay mehnat sharoitlari bilan bog'liq ayollar salomatlik xolatidagi muammolarini tibbiy profilaktikasini chora tadbirlarini ishlab chiqish kerak.

Rossiya olimlarining olib borgan tadqiqotlarida yil davomida ishlaydigan 100 tikuvchi ayollarga to'g'ri keladigan holatlar o’rganildi, bunda kunlar soni bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bilan kasallanish asosiy guruhda nazorat guruhiga qaraganda yuqoriligi aniqlandi. Eng yuqori ko'rsatkichlar qon aylanish, nafas olish, tayanch-harakat, endokrin va ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarida aniqlandi. Tadqiqot davrida endokrin, urogenital va tayanch-harakat tizimi kasalliklarining ko'payishi kuzatildi bundan tashqari ovqat hazm qilish tizimlari, homiladorlik, tug'ish va tug'ruqdan keyingi davrning asoratlari xam aniqlangan.

Ushbu tadqiqot bo’yicha anketa so’rovnomasi o’tkazilganida yosh va ish tajribasini hisobga olgan holda 3 yil davomidagi ginekologik kasalliklarni chuqur tahlil qilish natijasida kasallanishning o'sishi aniqlandi. O'rtacha ko'rsatkichlar 78 holat va 1260 kunlik nogironlikdan 100 yil davomida 127 holat va 1790 kungacha ko'tarildi Yallig'lanish jarayonlari genital organlar ginekologik kasallanish (26,9 39,8%), o'sma jarayonlari (21,3-26,9%), bachadon bo'yni patologiyasi (8,7-%) bo'yicha yetakchilik qilmoqda. 14,1%, tuxumdon-hayz siklining buzilishi (5,8-10,3%) va sut bezlari kasalliklari va disfunktsiyalari (3,9-7,8%) Ginekologik kasalliklar soni 40 yosh va undan kattalarda yoshlarga qaraganda yuqoriligi aniqlangan.

Asosiy va nazorat tadqiqot guruhlari so'rovnomasi ma'lumotlari bizga mehnat sharoitlari va reproduktiv salomatlik o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini aniqlashga yordam berdi. Homilador bo'lishning qiyinlashishi, homilaning tushishi va homiladorlikning asoratlari tez-tez uchramoqda, ular homiladorlik paytida tez-tez kasal bo'lishadi, yosh qizlarda esa ko'pincha hayz siklining buzilishi ko'p kuzatilgan.

Xulosa qilib aytganda ishlab chiqarish sanoat korxonasida ishlovchi ayollar organizmiga ta`sir etuvchi salbiy ishlab chiqarish omillari kompleksini oldini olish va ta`sir doirasini kamaytirishdan iborat. Yetakchi omillar shovqin, tebranish, elektromagnit nurlanish darajasining oshishi hisoblanadi. Bundan tashqari, ayollar noqulay yorug'lik sharoitida ishlaydilar. Doimiy psixo-emotsional stress holatida majburiy ish pozitsiyasida ish olib borishadi. Noqulay sanitar-gigiyenik mehnat sharoitlarini shakllantirishning asosiy sabablari - eskirgan uskunalarning ishlashi, uning nomukammalligi, oqilona rejalashtirish qarorlari, shaxsiy himoya vositalarining yetishmasligi, sanitariya va maishiy xizmat ko'rsatishning yomonligi.

Markaziy asab va yurak-qon tomir tizimlarini baholash nuqtai nazaridan tananing funksional holatini qiyosiy tahlil qilish, vizual analizator asosiy guruh ayollarida nazorat bilan solishtirganda mehnat jarayonida sezilarli o'zgarishlarni aniqladi. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikni chuqur tahlil qilish natijalariga ko'ra, ayol ishchilar o'rtasida kasb kasalliklari bilan kasallanish tarkibida qon aylanish, nafas olish, endokrin va tayanch-harakat tizimlari kasalliklari etakchi o'rinni egallashi aniqlandi. Ginekologik kasallanish darajasi va tuzilishi tahlili uning so‘nggi yillarda o‘sishidan dalolat beradi. Asosiy guruh bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar jinsiy a’zolarning yallig‘lanish kasalliklari, menopauza davrining buzilishi hamda kasalliklar va disfunksiyalarning ko‘payishi hisobiga 1,5 barobar oshdi.

Ishlab chiqarish sanoat korxonalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarning oqilona bandligini ta’minlash hamda davolash-profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha kompleks rejalarni ishlab chiqishda “Tikuvchilik sanoatida va inson salomatligiga jiddiy zarar keltiruvchi omillar ta`siri mavjud sanoat koronalarida ishlovchi ayollar o‘rtasida reproduktiv salomatlik buzilishining oldini olish” ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Mehnatni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar, birinchi navbatda, sanitariya va maishiy ta'minotni yaxshilashga, maqbul sharoitlarni yaratishga va psixo-emotsional stressni kamaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak;

Mehnat sharoitlarining ayol tanasiga salbiy ta'sirini oldini olish uchun tibbiy yordamni, davriy tibbiy ko'riklarni o'tkazish shartlarini va chastotasini yaxshilash; davriy tibbiy ko`riklarni 6 oy yoki bir yilda muntazam ravishda o`tkizish va barcha ishlab chiqarishda ishlovchi ayollarni tibbiy ko`rikka jalb qilish, tibbiy ko`rikka malakali tibbiyot xodimlari bilan olib borilishi kerak.

Ishlab chiqarish sanoat korxonaning davolash-sanitariya bo‘limlari, tuman tibbiyot va sog‘liqni saqlash muassasalari akusher-ginekologlari faoliyatida uzluksizlikni ta’minlash tibbiy ko‘rikdan muvaffaqiyatli o‘tish shartlaridan biri hisoblanadi; Somatik va ginekologik kasalliklarning oldini olishda ayollarda maxsus ko'nikmalarni shakllantirish, vaqti-vaqti bilan ginekologik ko'rikdan o'tish va shaxsiy gigiyena muhimligini tushuntirish maqsadida gigiyena tarbiyasi muhim ahamiyatga ega.

Xozirgi kunda bizning oldimizga qo`ygan eng katta maqsadlarimizdan biri: ayollimizning ish vaqti davomida va ishdan tashqari xolatlarda, ular uchun zarur bo'lgan oqilona ovqatlanishni tashkil qilish va ularga o'ziga xos parxezliklarni buyurish va bunga amal qilish kerak. Ishchilarning kunning oxiriga borib charchash xolatini kamaytirish uchun ish vaqtlarini to'g'ri taqsimlash va ish vaqti davomidan 15 daqiqa dam olish vaqtlarini tashkil qilish, ishchilar uchun yilda bir marotaba dam olish maskanlarida davolanishni tashkil qilish, ishchilarda ishlash davomida kelib chiqqan kasalliklarini avj olmasligi uchun shifoxonalarda davolanishni tashkil qilish, ishchilarni ish unumini tushirmaslik uchun almashib ishlashni yo'lga qo'yish.

Ushbu profilaktik chora tadbirlarga amal qilsak biz ayollarni sog'lom ishchi muxitini yaratgan bo'lamiz va kelajak avlodni sog'lom tug'ilishini o'z xissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kirillov V.F. Rukovodstvo k labaratornim zanyatiyam. Mehnat gigiyenasi bo`yicha laborator mashg`ulotlar uchun rukovodstvo. - M.: «Meditsina», 2008, - 335 b.
2. "Mehnat gigiyenasi fanidan amaliy mashg`ulotlar uchun o`quv qo`llanma". Iskandarov T.I., Iskandarova G.T. tahriri ostida. – T., 2009, - 284 b.
3. "Mehnat gigiyenasi". Iskandarova G.T. tahriri ostida. – T., 2009, - 283 b.
4. "Teksta lektsiy po gigiyene truda". prof. Iskandarovoy G.T. tahriri ostida. - T., 2009, - 271 b.
5. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O`zbekiston, 2014. – 46 b.
6. O`zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo`lida. I.A. Karimov tahriri ostida – Toshkent, «O`zbekiston», 2005, – 96 b.
7. "Gigiyena truda" pod redaktsiey akad. RAMN, prof. N.F. Izmerova, prof. V.F. Kirillova – M., 2010, - 583 b.
8. Iskandarov A.B., I.V.Slavinskaya "Gigienicheskie trebovaniya dlya trikotajnax predpriyatiy" San PiN R Uz № 0262-09 T., 2009, - 19 b.
9. Iskandarov A.B., I.V.Slavinskaya i dr. "Ozdorovlenie usloviy truda jenshin, zanyatax na trikotajnom proizvodstve" Metodicheskaya rekomendatsiya № 012-3/0120 – 2008, - 18 b.
10. Iskandarov A.B. Gigiyena truda i funktsionalnoe sostoyanie organizma jenshin zanyax na trikotajniy proizvodstvax Uzbekistana.- T., 2012. - 166 b.
11. Kiryushin V.A., Bolshakov A.M., Motalova T.V. Mehnat gigiyenasi fanidan o`quv qo`llanma. – M., 2011, - 389 b.
12. XQ Ruzmatova, DA Kamalova, GQ Muxammadova - " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH
13. Qonunlar: «Fuqarolar sog'lig'ini muhofazalash to'g'risidagi», «Mehnat kodeksi», «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to`g`risidagi qonun».
14. O'zbekiston Respublikasi sanitar qoida me'yorlari.
15. Internet ma'lumotlari.